



PEDAGOGIK QOBILIYATNI ANIQLASH VA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Raimberdiyev A.A.

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Tayanch soʻzlar: qobiliyat, intellektual qobiliyat, ijobiy qobiliyat, akademik qobiliyat, iqtidor, iqtidorlik, iqtidorli bolalar, isteʼdodli yoshlar.

Ключевые слова: способность, интеллектуальные способности, положительные способности, академические способности, талант, одарённость, одарённые дети, талантливая молодёжь.

Key words: ability, intellectual ability, positive ability, academic ability, talent, giftedness, gifted children, talented youth.

Qobiliyatlar avvalom bor umumiy va maxsus turlarga boʻlinadi va har birining oʻz psixologik tizimi va tuzilishi mavjud. Shunday qilib, qobiliyat har bir shaxsning oʻziga xos individual - psixologik xususiyati hisoblanib, u shaxsning butun hayoti va faoliyati, ijtimoiy faolligi, fikr va qarashlari, dunyoqarashi natijasida rivojlanib boradi. Masalan, oliy oʻquv yurt talabalari ham ijtimoiy-gumanitar, ham aniq fanlar, ham texnika fanlari sohasidagi bilimlarni oʻzlashtira oladi.

Oʻzbek tilining izohli lugʻatida “qobiliyat” tushunchasining mazmuni ham ochib beriladi: “qobiliyat – bu mayl, qiziqish, moyillik, qobillik, qodirlik, isteʼdod” maʼnolarini anglatishi taʼkidlanadi (Oʻzbek tilining izohli lugʻati. J.V/Tahrir hayʼati: T.Mirzayev va b.q. T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. -317-b.)

“Oʻzbekiston milliy ensiklopediya”sida esa “qobiliyat bilim, koʻnikma, malakalardan farqli oʻlaroq, shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ish uddalay olishidagi subyektiv shart-sharoitlarni ifodalovchi individual psixologik va jismoniy xususiyatlaridir” – deb taʼriflanadi. (Oʻzbek tilining izohli lugʻati. J.V/Tahrir hayʼati: T.Mirzayev va b.q. T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. -317-b.)

Umumiy qobiliyatga ega bo'lgan shaxslar yuqori intellektual imkoniyatlarga ega bo'libgina qolmay, muammolarning yoki masalalarning yechimini topishga ijodiy yondashishi bilan ajralib turadi.

Maxsus qobiliyat egalari esa biron-bir aniq (masalan, matematika, musiqa, rasm chizish, shaxmat o'ynash, sport) faoliyat turiga qobiliyati bo'lgan va mana shu faoliyat bilan shug'ullanishni afzal ko'radilar.

Pedagogik nuqtai nazardan umumiy va maxsus qobiliyat yosh davrlarini inobatga olgan holda muhim jihatlarga bog'liq.

Erta yosh davrlar - maktabgacha va kichik maktab yoshida iqtidor umumiy hamda universal qobiliyat sifatida ko'rilishi va rivojlanishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan bu "umumiy qobiliyat" o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib ma'lum bir yo'nalishlarni belgilaydi. Ayni vaqtda bu iqtidor bola shaxsi tomonidan qay darajada namoyon bo'layotganligiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Aniq namoyon bo'lgan, ya'ni psixolog-pedagog, ota-onalar tomonidan e'tibor berilgan qobiliyat "aktual", atrofdegilar payqamaydigan qobiliyat esa "potensial" qobiliyat hisoblanadi.

Bir qancha mashhur olimlar, bastakorlar, rassom va yozuvchilar (masalan, yosh V.A.Motsart, F.Galton, I.Mechnikov, K.Gauss, N.Vinner, G.Leybnits, V.Gyugo) erda yoshdayoq o'zlarining qobiliyatlarini namoyon qilganlar, aksincha ko'p hollarda yoshlik davrida hech qanday qobiliyatga ega bo'lmagan bolalar yetuklik davrida yutuqlarga erishishlari mumkin. Bu aqliy potensialga ko'pincha yon atrofdegilar e'tibor bermasliklari mumkin. Tabiiyki, har bir holatda qobiliyatni payqamaslikning sabablari hilma-xildir. Potensial iqtidor va qobiliyat haqiqatdan ham ma'lum bir vaqtgacha namoyon bo'lmagandir.

Balki, ota-onalar pedagoglar va psixologlar tomonidan bola qalbining nozik harakatlaridagi o'zgarishlarga yetarlicha ahamiyat berilmagan, intuitiv holda buni payqamaganlar yoki bilimlari yetmagan bo'lishi mumkin. Yoki aksincha, bu narsalarni tushunmaganliklari sababli boladagi buyuk potensial imkoniyatlarni sezmagalar, va hattoki, bu ijodkorlikni, intellektual tashabbusni negativ xususiyat sifatida qabul qilganlar. Boshqa, xususiyatlarni esa qadrliroq, deb hisoblaganlar. Ya'ni, barchamizga shaxsiy tajribamizdan ma'lumki, tirishqoqlik, itoatkorlik, saranjom-sarishtalik kabi xislatlarni fikrlar originalligi, dadillik, harakatlardagi va mulohaza yuritishdagi mustaqillikdan ustun qo'yadigan ota-onalar, o'qituvchilar, oliy o'quv yurtlari professor o'qituvchilari, rahbarlar uchraydi. Amerikalik olimlar tomonidan 400 ga yaqin taniqli odamlarning tarjimai holi o'rganib chiqilganda ulardan 60 foizi maktab ta'limi davrida jiddiy muammolarga duch kelganliklari aniqlandi. Aktual va potensial qobiliyatlar tushunchasining mavjudligi rivojlanishni oldindan prognoz qilish muammosini muhim, deb hisoblaydi.

Shaxsning har qanday sifatlari va xarakter xususiyatlari, fe'l-atvorlaridagi va faoliyatlaridagi fazilatlar kattalarga kelajakda bolaning buyuk olim, rassom, sportchi yoki davlat arbobi bo'lishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Bu savolga javob topish birmuncha mushkuldir. Psixologlar shaxsning kelajagini

